


O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI

2018 yilning may oyida O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi


2018 yilning may oyida iste`mol bozorida tovar va xizmatlar narxi o`rtacha 0,8 %ga ko`tarildi. Shundan, mahsulotlar narxi oy davomida o`rtacha 0,4 %ga hamda xizmatlar 2,1 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning may oyida iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Joriy yilning may oyi davomida xizmatlar tarifi narxlarining o`shish tendentsiyasi aprel oyidagi kabi tovarlar narxlarining o`shishi sur`atidan yuqoriligini saqlab qoldi.

2018 yilning yanvar-may oylarida iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)




Tahlil ma`lumotlariga ko`ra, o`tgan davr mobaynida asosiy guruhlar bo`yicha narxlarning o`zgarishi va ularning iste`mol narxlari indeksi (keyingi o`rinlarda INI)ning o`shishiga mahsulotlar 0,3 foiz darajasida (f.d.) hamda xizmatlar 0,5 f.d.da ta`sir ko`rsatgan.

2018 yilning may oyida tovar va xizmatlarning asosiy guruhlari bo`yicha narxlarning o`shishi va ularning umumiy INIga ta`siri



Ulush ko`rsatkichlari shaklida esa quyidagicha ifodalash mumkin:

2018 yilning may oyida tovar va xizmatlar narxlarning o`lishi va umumiy INIga ta`siri ulushi




Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o`rtacha 0,2 %ga qimmatlashib, bu esa INIning umumiy o`lishiga 0,1 f.d.da ta`sir ko`rsatdi.

2018 yilning may oyida asosiy guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)



Umumiy INI ўсишидаги таъсири – 0,1 ф.д.

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ichida narxlarning o`shishi hamda pasayishi bo`yicha yetakchilik mos ravishda mevalar (o`shish sur`ati 4,8 %) hamda sabzavotlar (pasayishi 13,6 %) guruhiga tegishlidir.

2018 yilning may oyida asosiy guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari o`zgarishi

(o`tgan oyga nisbatan, %)

Non mahsulotlari



Narxlarning o`shishi:

✓ guruch - 4,2 %

Narxlarning pasayishi:

✓ grechka - 2,9 %

✓ loviya - 1,4 %

✓ no`xat - 1,3 %

✓ un - 0,6 %

✓ mosh - 0,4 %

Go`sht, parranda go`shti va baliq



Narxlarning o`shishi:

✓ tirik va sovutilgan baliq - 3,9 %

✓ mol go`shti (suyaksiz go`shtidan tashqari) - 3,4 %

✓ go`sht qiymasi - 2,7 %

✓ qo`y go`shti - 2,5 %

✓ suyaksiz mol go`shti - 2,3 %

✓ qaynatilgan kolbasa - 1,3 %

✓ yarimdudlangan kolbasa - 1,2 %

✓ sosiska, sardelka, go`shtli konservalar - 0,4 %

Narxlarning pasayishi:

✓ tovuq boldiri, son qisimlari - 2,1 %

✓ parranda go`shti (sonlardan tashqari) - 1,9 %

Sut mahsulotlari



Narxlarning o`shishi:

✓ muzqaymoq	- 1,2 %
✓ suzma	- 0,5 %
✓ tvorog	- 0,4 %
✓ pishloq	- 0,3 %

Narxlarning pasayishi:

✓ sut	- 1,6 %
✓ kefir, qatiq	- 0,1 %

Mevalar, sabzavotlar va kartoshka



Narxlarning o`shishi:

✓ sabzi	- 9,9 %
✓ olma	- 6,3 %
✓ tsitrus mevalar	- 5,3 %
✓ lavlagi	- 4,2 %
✓ nok	- 4,1 %
✓ quruq mevalar	- 2,1 %

Narxlarning pasayishi:

✓ bodring	- 27,1 %
✓ pomidor	- 21,7 %
✓ piyoz	- 9,7 %
✓ kartoshka	- 5,7 %
✓ sarimsoq	- 4,5 %
✓ banan	- 1,7 %

Ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan alkagolsiz ichimliklar (0,9 %) va tuxum (0,4 %) narxlari birmuncha sezilarli darajada qimmatlashdi.

Boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o`rtacha narxlarida jiddiy o`zgarishlar deyarli kuzatilmadi.

Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Joriy yilning may oyida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o`shish darajasi birmuncha barqaror sur`atlarda saqlanib qoldi. Oy davomida narxlar o`rtacha 0,6 %ga qimmatlashib, bu esa INning umumiy o`shishiga 0,2 f.d.da ta`sir ko`rsatdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari bo`yicha narxlarning o`shishi quyidagi ko`rinishda tasvirlangan:

**2018 yilning may oyida asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari
guruhlarining iste`mol narxlari indeksi**
(o`tgan oyga nisbatan, %)



Умумий ИНИ ўсишидаги таъсири – 0,2 ф.д.


«UzBAT A.O.» QK AJ ishlab chiqarayotgan mahsulotlari narxining oshirishi natijasida iste`mol bozorlarida sotilayotgan tamaki mahsulotlarining umumiy narxlari qimmatlashishiga sabab bo`ldi.

2018 yilning may oyida ham qurilish materiallari narxlari o`sishtan to`xtamadi. Mazkur guruhga oid narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan mahsulotlar quyidagi jadval ko`rinishida aks ettirilgan:

**2018 yilning may oyida asosiy turdagi qurilish
materiallarining iste`mol narxlari indeksi**

(o`tgan oyga nisbatan, %)

G`isht	104,2 %	Yog`och mahsulotlari	101,2 %
---------------	----------------	-----------------------------	----------------



Tsement

102,1 %

Shpatlyovka

100,7 %



**Linoleum
va laminat**

100,4 %

Keramik plitkalar

100,6 %



Yoqilg`i-moylash materialлари bozori kon`yunkturasi ning va ular bilan bog`liq birja narxlarining o`zgarishi natijasida aholiga avtomobillarga yoqilg`i quyish shahobchalari orqali sotiladigan propan hamda metan narxlarining (mos ravishda 5,3 % i 0,9 %) qimmatlashishiga olib keldi.

Ayrim turdagi nooziq-ovqat mahsulotlaridan oyoq kiyim va avtomobillar uchun ehtiyot qismlar narxлари 0,5 %, kiyim-kechak, oshxona jihozlari, aloqa vositalari hamda bosma nashr mahsulotlari 0,4 %, asosiy turdagi maishiy jihozlar va elektr asboblari, shuningdek, gilam va gilam mahsulotlari narxi o`rtacha 0,2 %ga qimmatlashdi. Televizor ishlab chiqaruvchi mahalliy tadbirkorlar o`z mahsulotlari

narxini pasaytirganliklari natijasida ushbu turga mansub tovarlar narxi iste`mol bozorida o`rtacha 1,8 %ga arzonlashdi.

Xizmatlar iste`mol narxlari indeksi

Aholi uchun xizmatlar may oyi davomida o`rtacha 2,1 %ga ko`tarildi. Bu esa INI umumiy o`shishiga 0,5 f.d.da ta`sir etdi.

Xizmatlar sohasidagi iste`mol narxlari indeksiga asosiy ta`sir omillari sifatida quyidagi tariflarga o`zgarishi natijasida yuzaga keldi:

2018 yilning may oyida aholi uchun ayrim turdagi xizmatlar guruhining iste`mol narxlari indeksi *(o`tgan oyga nisbatan, %)*



Умумий ИНИ ўсишидаги таъсири – 0,5 ф.д.

Aholi uchun uy-joy kommunal to`lov tariflari oy davomida o`rtacha 2,3 %ga oshdi.

2018 yilning may oyida asosiy turdagi uy-joy kommunal xo`jaligi tariflarining iste`mol narxlari indeksi *(o`tgan oyga nisbatan, %)*

Uy-joy kommunal xizmatlari

102,3 %



✓ XUJMSH, ekspluatatsiya xarajatlari to`lovi **112,9 %**

✓ sovuq suv va kanalizatsiya to`lovlari **113,8 %**

✓ issiqlik ta`minoti uchun to`lov **113,3 %**

✓ issiq suv ta`minoti uchun to`lov **112,1 %**

Shuni alohida qayd etib o`tish lozimki, Navoiy viloyatidan tashqari mamlakatning barcha hududlarida sovuq suv va kanalizatsiya uchun to`lovlar joriy yilning may oyidan e`tiboran oshirildi. Navoiy viloyatida ushbu soha bo`yicha narxlar mart oyida oshirilgandi. Narxlarning sezilarli darajada qimmatlashishi Toshkent shahri (22,4 %) va Qashqadaryo viloyatida (20,4 %) kuzatilgan bo`lib, narxlarning birmuncha past sur`atlarda o`shishi esa Sirdaryo (7,0 %) hamda Namangan (7,4 %) viloyatlari hududida qayd etilgan.


Shu yilning may oyidan boshlab aholi uchun issiq suv hamda issiqlik ta`minoti tariflarida yangi narxlarning joriy qilinishi hududlardagi issiqlik yetkazib beruvchi tashkilotlarning "Issiqlik manbai" korxonalari bilan deklaratsiya asosidagi yangi shartnoma narxlarining kuchga kiritilishi bilan bevosita bog`liqdir. Issiq suv hamda issiqlik ta`minoti narxlarining eng yuqori sur`atlarda oshishi Jizzax (mos ravishda 34,6 % va 34,5 %) hamda Xorazm viloyatlari (ikkita tarif 22,7 %) hududida qayd etildi. Narxlarning aksincha, past sur`atlarda o`shish holati Samarqand viloyatida kuzatilgan (issiq suv hamda issiqlik ta`minoti narxlari 4,3 %ga qimmatlagan). Navoiy viloyatida esa narxlar 2018 yilning mart oyida oshirilgandi.

XUJMSH to`lovlari mamlakatimizning olti hududida oshganligini qayd etilgan bo`lib, bu sohada narxlarning sezilarli darajada qimmatlashganligi Surxondaryo

viloyatida 1,7 barobar, Sirdaryo viloyatida esa ushbu ko`rsatkich bor yo`g`i 1,8 %ni tashkil etgan.

Yo`lovchi tashish transporti xizmatlari narxi oy davomida o`rtacha 2,3%ga oshdi.

2018 yilning may oyida asosiy turdagi yo`lovchi tashish transporti xizmatlarining iste`mol narxlari indeksi
(o`tgan oyga nisbatan, %)



Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Andijon, Namangan va Samarqand viloyati xokimliklari qaroriga asosan ushbu hududlardagi shahar avtobus transportlarida yo`l haqi to`lovlari oshirilgan. Andijon va Namangan viloyatlarida ushbu ko`rsatkich o`rtacha 66,7 %, Samarqand viloyatida 33,3 % hamda Qoraqalpog`iston Respublikasida esa 28,6 %ni tashkil etgan.

Uzoq masofaga qatnovchi temir yo`l transporti chiptalarining narxi oy davomida 9,3 %ga arzonlashdi (so`mga nisbatan shveysariya franki kursining pasayishi, shuningdek, bir qator yo`nalishlar bo`yicha bazoviy tariflarga nisbatan indeksatsiya koefficientlarining kamaytirilganligi natijasida narxlarda pasayish holatlari kuzatilgan).

Samolyot chiptalarining narxlari o`rtacha 3,0 %ga arzonlashishi so`mga nisbatan yevro kursining pasayishi oqibatida vujudga keldi.

Maishiy turdagi xizmatlar narxi oyda o`rtacha 1,0 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning may oyida asosiy turdagi maishiy xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi
(o`tgan oyga nisbatan, %)

Maishiy turdagi xizmatlar		101,0 %		
			✓ nusxalash xizmatlari	102,9 %
			✓ kimyoviy tozalash xizmatlari	101,9 %
			✓ sartaroshxona, kosmetologiya va ijara xizmatlari	101,4 %
			✓ fotosurat va yuk tashish xizmatlari	101,3 %

Ushbu guruhdagi ayrim tur xizmatlardan hammom va dush xizmatlari (2,9 %), pullik avtoturargoh xizmatlari (1,8 %), elektr jihozlari hamda uy-joy ta`miri xizmatlari (1,0 %) narxlari qolgan xizmat narxlariga nisbatan sezilarli darajada qimmatlashdi.

2018 yil may oyida asosiy turdagi dam olish xizmatlari iste`mol narxlari indeksi
(o`tgan oyga nisbatan, %)

101,9 %	Dam olish xizmatlari
✓ mehmonxona xizmatlari	105,2 %

✓ *sihatgohlar
va dam olish uyi
xizmatlari*

101,0 %



Umumiy mehmonxona xizmatlarining oshishi bir qator hududlardagi mehmonxona nomerlarida yashash narxlarining qimmatlashiganligi natijasida yuzaga keldi. An`anaviy turizm maskanlari Samarqand hamda Xorazm viloyatlarida narxlarning o`shishi birmuncha yuqoriroq darajada (mos ravishda 18,8 % va 17,2 %) bo`lishi bilan bir qatorda Andijon viloyatida ushbu ko`rsatkich bor yo`g`i 2,0 %ni tashkil etgan.